

O`QUVCHI VA TALABA SHAXSINI TARBIYALASH VA RIVOLANTIRISHNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Bekchanova Solixa Davlatnazarovna
Buxoro davlat Tibbiyot instituti o'qituvchisi

O'zbekiston mustaqil davlatga aylangan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Bu eng avvalo shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi.

O'zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs extiyolarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi.

Axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni axloqiy shakllantirishdir. Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir. Axloqiy tarbiyaning ba'zi asosiy sifatlari mazmunini tavsiflaymiz.

Vatanparvarlik. Vatanparvarlik Vatanga muhabbat, uning himoyasiga tayyor bo'lish, vatanning gullab-yashnashi uchun mehnat qilish demakdir.

Insoning ma'naviy qiyofasida bu tuyg'ular o'zini namoyon qiladi. Unda ijtimoiy burch bilan belgilanadigan xatti-harakatning eng yuqori asoslari o'z aksini topadi. Fuqarolik burchi inson xayotiy faoliyatining barcha sohalaridagi ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Vatan manfaatlarini himoya qilishda, mehnatda, ijtimoiy faoliyatda o'zining fuqarolik majburiyatlarini sidqidildan bajarishga rag'batlantiradi.

O'quvchilarda baynalmilal tuyg'u va baynalmilalchi sifatlarini tarbiyalash jarayonida ularning O'zbekiston xalqlarining milliy birligi, umumdavlat manfaatlarining ayrim viloyat yoki millat manfaatlaridan ustunligini tushuntirish alohida ahamiyatga ega. Jamoatchilik faoliyati shaxsning xususiyatlari sifatida namoyon bo'ladi va insonning jamiyat maqsadlari bilan birdamligini aks ettiradi. Uning tuzilmasiga mehnat va jamoatchilik faolligi, burch va javobgarlik tuyg'usi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamoa va butun jamiyat manfatlari yo'lida boshqalarga va o'ziga talabchanlik tuyg'ulari kiradi.

“Jamoatchilik” tushunchasiga, shuningdek jamoa va uning har bir a'zosining rivojlanish muvaffaqiyatiga g'amxo'rlik darajasiga o'sib chiqadigan munosabatlarning axloqiy meyorlari ham kiradi.

Mehnatga ma'suliyatli munosabat degani bu axloqning eng muhim tarkibiy qisimlaridan biridir. Mehnatga ma'suliyatli munosabatning asosiy belgilari:

begʻarazlik, mehnat majburiyatlariga ongli, maʼsuliyatli yondashish, intizomlilik, ijodiy izlanish, tashabbus, faoliyat natijalarini oldindan koʻra bilish va mustaqil qaror qabul qilish, jamoatchilik hamkorligi, oʻrtoqlariga yordam koʻrsatishga tayyorgarlik, mehnat qilishning qadr- qimmati va sharafi tuygʻusini rivojlantirish.

Ongli intizom: Ongli intizom axloqning tarkibiy qismi hisoblanadi. Intizom deganda burchni bajarish shaxsiy va ijtimoiy davlat, shaxsiy va jamoatchilik majburiyatlarni kamchiliksiz bajarish hamda ijtimoiy hayotda kishilarga, mehnatga va jamoat mulkiga jamiyat qabul qilgan hatti-harakat meyorlariga amal qilish tushuniladi.

Intizom maʼnaviy va siyosiy hodisadir. U qandaydir alohida intizomiy tadbirlarning natijasi emas, balkim tarbiya natijasidir. Ongli intizom eʼtiqoddan oʻsib chiqadi. Oʻquvchilarda intizomlikni tarbiyalash ularning eʼtiqodini shakllantirish, umumiy madaniyatini oʻstirish, muntazam mehnatga va vazifasini qatʼiy bajarishga oʻrgatish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo oʻquvchilarning amaliy faoliyatlarida, oʻqish, mehnat jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, oʻzaro taʼsir koʻrsatish usullari, xulq-atvor meyorlarini oʻzlashtirishlarida namoyon boʻladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni oʻquv dasturlari va darsliklarga joylangan boʻlib, u oʻquv jarayonida amalga oshiriladi. Bola maktabga borishning birinchi yilidanoq oʻz atrofidagi odamlarning ijtimoiy muhim ideallariga murojaat qiladi. Oʻzbekiston Respublikasining ideallari: ozdlik, tenglik, birodarlik, doʻstlik, va tinchlik ekanligini oʻquvchilar oʻqish, yoshlar jamoatchilik tashkilotlari faoliyatlari jarayonlarida oʻzlashtiriladi.

Har qanday ijtimoiy meyor-siyosiy, huquqiy, axloqiy xulq-atvorni tartibga solish vazifasini bajaradi. Huquqiy va axloqiy meyorlarning oʻziga xosligi va oʻzaro aloqadorlik tomonlari nimada?

Axloqiy dunyoqarash tegishli yurish turish meyorlari bilan chanbarchas boʻgʻlangan. Huquqiy sohada har qanday qarashlar huquqiy normalarda mujassamlashavermaydi. Shu bilan birgalikda axloq meyori inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olib, huquqiy qonunlarga nisbatdan ancha keng tarqalgan. Axloqiy meyorlarning taʼsirchanligiga tartibga solish mexanizmlari vositasida erishiladi. Ular yordamida normativ talablar shaxsning ichki zaruriy munosabatlariga, uning axloqiy sifatlariga aylanadi. Axloqiy meyorlar hatti-harakatning umummajburiy xarakteriga ega boʻlib, inson axloqiy shaxs sifatida qanday xususiyat va sifatlarga ega boʻlishi lozimligi togʻrisida koʻrsatmalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Mazkur maʼnoda axloqiy meʼyorlar har doim istalgan tipni aniqlashda oʻzib ketish, oldindan aytish xarakteriga ega, huquqiy norma esa xatti-xarakatning shakllangan tipiga qaratilgan boʻladi.

Shunday qilib, axloqiy sifatlarni shakllantirish tarbiyachining axloqiy ong, axloqiy tuyg`u va axloqiy fel-atvorni ko`zda tutgan holda shaxsga butunligicha yondashish tizimi orqali amalga oshiriladi.

Axloqiy tarbiyaning yo`llari va vositalari: Axloqiy tarbiya yoshi va o`quvchining tog`ri yo`nalish olishi uchun hal qiluvchi ta`sir ko`rsatadigan muhitni oila, o`rtoqlar va do`stlar muhiti ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo`l va usullari o`quvchilarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda axloqiy xususiyatga ega. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi: inson xayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari tog`risida keng tasavvur beradi.

Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, bahoni berishni shakllantirishga va shu asosda axloqiy e`tiqodni shakllantirishga ta`sir ko`rsatadi. O`quvchilarni o`zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi. Shaxsning o`zini axloqiy tarbiyalashga yordam beradi.

Axloqiy bilim asosan axloq tog`risidagi suhbatlar, ma`ruzalar, mavzuiy kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o`quvchilar konferensiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi. Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda o`quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy meyorlar tog`risiagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o`zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur.

Axloqiy meyorlarni tushuntirish axloqiy bilimlarning poydevori bo`lib xizmat qiluvchi dunyoqarashga tayanilgan samarali amalga oshiriladi. Masalan, insonning vatanga munosabatining axloqiy mohiyatini ochib beruvchi axloqiy tushunchalar, davlatning ijtimoiy tuzilishi, ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanish darajasi, ijtimoiy va madaniy qadriyat aniq tushunilgan holdagina o`zlashtirishi mumkin.

Axloqiy bilim axloq sohasidagi bilimning etik tasvirlari bilan qo`shilib ketgandagina eng yuqori samaraga erishiladi. Shaxsning axloqiy rivojlanishi axloqiy extiyojlarni shakllantirishni o`z ichiga oladi. Mehnatga, muloqotga, madaniy qadriyatlarni o`zlashtirishga, bilish qobiliyatini rivojlantirish va boshqalarga extiyoj seziladi. Bu extiyojlar o`quvchilar faoliyati va munosabatlarning real tajribasida rivojlanadi. Ko`p qirrali faoliyat jarayonida xatti- harakatlarning ijtimoiy foydali ko`nikmalari, axloqiy odatlar, barqaror munosabatlar shakllanadi.

Aniq maqsadga yo`naltirilgan ijtimoiy foydali faoliyatda bola turli vazifalarni bajaradi, ularning har biri uni muayyan sotsial majburiyatlarga tayyorlaydi. Maktabda u- o`quvchi, sport mashg`ulotlarida- jamoa sardori, oilada- o`gilyoki qiz va boshqalar. Har qaysi rol muayyan axloqiy – psixologik xususiyatni (sport jamoasida mardlik va o`g`illik tuyg`usida nazakat va boshqalar) taqazo etadi. Har qanday ijtimoiy rol eng muhim axloqiy ilm olishni talab qiladi. Onglik,

masuliyat, mehnatsevarlik, yordam ko'rsatishga tayyorlik, o'zining shaxsiy qiziqishlari bilan xarakat qilish. Demak sotsial majburiyatlarni ongli qabul qilish u yoki bu vazifalarni va uni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirishda kuchli ta'sir qiluvchi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Axloqiy extiyojni shakllantirish va amaliy faoliyat o'rtasida mustahkam aloqa mavjud. Biroq, axloqiy va obyektiv ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat har doim ham o'quvchida istalgan extiyojni tug'diravermaydi.

Mehnat faoliyati axloqiy tarbiyada boshqa omillardan foydalanilmaydigan taqdirda muhim yutuqlarni bermaydi. Axloqiy tarbiya tizimida axloqiy odatlar alohida o'rinni egallaydi. Chuqur o'zlashtirilgan axloqiy me'yorlar bilan belgilanuvchi xatti-harakat odatning ma'naviy sababiyatining barqaror ko'rsatgichidir. Odatlar o'zlashtirilgan xatti-harakatni ishlab chiqarish yo'llaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Fe'l atvorning odatdagi shakl va usullari barcha axloqiy me'yorlarini o'zlashtirish jarayonida ishlab chiqiladi. Ko'pincha axloqiy odatlar insonparvarlik, mehnatga mas'uliyat bilan yondashish tuyg'ularini shakllantirish uchun zarurdir. Odatlar shartli ravishda oddiy va murakkabga bo'linadi. Oddiy odatlar deyilganda ijtimoiy turmushning qoidalari, belgilangan intizom me'yorlari va muloqot madaniyati asosida yotgan ishlar va harakatlar ko'zda tutiladi

Murakkab axloqiy odatlarga fuqarolik, mehnat, oilaviy burchlarini, axloqiy xatti-harakatklarini vijdonan bajarishga bo'lgan extiyoj kiradi. Axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi xatti-harakatlarni odatga aylantirishdir. Axloqiy odatlarni tarbiyalashda qo'yiladigan pedagogik talab o'quvchining fe'l atvori va ongining birligi va o'zaro aloqasiga asoslanadi.

U yoki bu odatni tarbiyalashdan oldin, o'quvchini ijobiy odatlarni egallash va salbiy odatlarga barham berishga moyil qilish lozim.

Axloqiy odatlarni tarbiyalash o'quvchi fe'l atvorining ijobiy dalillari asosida amalga oshiriladi.

Odatda izchillik bilan oddiydan nisbatdan murakkabga qarab tarbiyalanadi, u o'z-o'zini nazorat va tashkil qilishni talab qiladi. Axloqiy odatlarni tarbiyalashda o'quv yurtining umumiy muhiti katta ahamiyatga ega. An'analar jamoa qonunlari bilan qo'llab-quvvatlanayotgan fe'l atvorning shakllanish usullari o'quvchilar tomonidan yengil o'zlashtiriladi. Fe'l atvorning tajribasini tashkil qilish asosan barqaror ijobiy ta'sir vositalarini yaratishdir.

Axloqiy meyorlarni o'zlashtirish insonning bu me'yorlariga emotsional munosabati bilan boyiydi. Axloqiy meyorini ma'lum ma'noda u yoki bu xatti-harakatni keltirib chiqarishga undovchi sabablar ham belgilaydi.

Axloqiy tuyg'u, axloqiy iztirob va axloqiy munosabatlar qat'iy shaxsiy ma'naviy qiyofaga ega. Ular insonni oliyanob harakat va niyatlardan qoniqtiradi, axloqiy me'yorlarni buzganlarida vijdon azobiga soladi. Bolalik Yoshi

tuyg`ularning rang-barangligiga muxtoj va tarbiyachining vazifasi boladagi tuyg`ular obyektiga ijtimoiy zarur yo`nalish bera bilishdir.

Psixologlarning aniqlashlaricha, kichik maktab yoshi axloqiy talab va meyorlarni o`zlashtirishga moyilligining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Bu shaxs rivojlanishiga o`z vaqtida axloqiy poydevor qo`yish imkonini beradi. Kichik yoshda shaxsning axloqiy rivojlanishini belgilovchi tarbiyaning mohiyati bolaning hissiy hozirjavobligiga tayanuvchi insonparvarlik munosabat va o`zaro munosabatlarini shakllantirishdan iborat.

O`smirlik yoshida yaqin atrof muhitini o`zlashtirishda muayyan tajriba paydo bo`ladi, tengdoshlar bilan barqaror aloqalar o`rnatiladi. o`z-o`zini anglash, xususiy shaxsini tasdiqlashga extiyoj kuchayadi. O`smir atrofdagi kishilar namunasiga ergashadi, ideal axtarish, o`z mavqeini belgilash vositasini tanlashga intiladi.

O`z- o`zini anglashni rivojlantirish, o`z o`rnini topish extiyoji o`spirin uchun xarakterli xususiyatdir. Bu extiyoj inson shaxsiga qiziqish, insonlarning ishlariga, ularning asoslangan doirasiga tahliliy yondashish tuyg`ularini shakllantiradi.

O`z-o`zini anglash xisiyoti rivojlanishining ma`lum bosqichida o`spirinda hayotda o`z o`rnini topish extiyoji paydo bo`ladi. Bu extiyoj shaxsning ijtimoiylanuvchi jarayoni, ilgarigi xayotiy tajribasi, ruhiy va jismoniy rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari qanday o`tishiga bog`liq ravishta nihoyatda qarama-qarshilikda namoyon bo`ladi. O`z mavqeini belgilashda intilish o`spirinlik vaqtida tez-tez namoyon bo`lib turadigan faol mustaqillikning o`sishi bilan qo`shilib ketadi. Hozirgi o`quvchilarning intellektual rivojlanishi ayrim hollarda eng avvalo atrofdagi odamlar bilan o`zaro munosabat va o`zaro ta`sirida oliy ma`naviy tuyg`u va axloqiy hattharakat tajribasidan o`zib ketadi.

O`smirlik va o`spirinlik yoshi tarbiya uchun qiyin davr hisoblanadi, holbuki agar tarbiyachi o`quvchini, oilasini, uning rivojlanishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning xarakterini bilsa, bu qiyinchiliklarning oldi olinishi mumkin.

Maktab o`smirni oilaviy hayotga tayyorlashi lozim. Mana shunday tayyorlashning muhim vositalaridan biri yaxshi tashkil etilgan tarbiyadir. Jinsiy tarbiya axloqiy tarbiyaning elementidir. Uni to`g`ri amalga oshirish shaxsning gormonik rivojlanishi, uning axloqiy sog`lomligi uchun kata ahamiyatga ega.

Mehnat tarbiyasi: O`quvchilarning tarbiyasi maktab, oila va jamoatchilikning birgalikda tarbiyaga zo`r berishi bilan amalga oshirildi.

Mehnat tarbiyasi fan asoslarini o`rganish jarayonida o`quvchilarning olgan bilimlarining aniq maqsadga yo`nalganligini, ishlab chiqarish jarayoning ilmiy asoslarini, bilish va kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishni ko`zda tutadi. O`quvchi butun o`qish yillarida inson mehnati bilan yaratilgan boyliklar bilan tanishadi, bular faqat erkin mehnat qila olganlaridagina yuzaga kelishi tushuniladi. Bumumiy hisoblangan

undan tashqari, o`quv faoliyati har qanday mehnat uchun umumiy hisoblangan unsurlarni o`zida mujassamlashtiradi. O`quvchi mehnatni ilmiy tashkil qilishning birinchi darsini o`quv jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi va mehnat ta`limi o`zaro bog`langan va o`zaro bir-birini taqazo etadi. Mehnat faoliyatri muayyan o`rganishni, tegishli mahorat va ko`nikmaga hamda bo`lajak faoliyatga ijobiy munosabatga ega bo`lishni zarurat qilib qo`yadi.

Список литературы

1. Мушарьянти Л., Юсуп Р.М., Прият-Нанто Х. Методика обучения критическому мышлению студентов медицинских специальностей: обзор литературы. *Бали Мед Дж.* 2021;10:1083-7. [[Google Scholar](#)]
2. Заяпрагассаразан З., Менон В., Кар С.С., Батманабане Г. Понимание критического мышления для создания лучших врачей. *J Adv Med Education Res.* 2016;1:9-13. [[Google Scholar](#)]
3. Bekchanova Soliha Davlatnazarovna. Становление человека личностью сквозь призму педагогической и культурной реальности/ *Eurasian journal of academic research/* 26th April 2023.
4. Bekchanova Soliha Davlatnazarovna. Концептуальная важность формирования гибких навыков у младших школьников сквозь призму образовательных компетенций. ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ. –7/3-2023
5. Bekchanova Soliha Davlatnazarovna. The subject, content and essence of the science of professional psychology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.* Vol. 12, Issue 05, May 2022
6. [Талабалар касбий тафаккурини ривожлантиришда замонавий маъруза машғулотларининг аҳамияти](#). Гулноз Негматовна Курбанова. Биология и интегративная медицина. 2021
7. [Психологические механизмы формирования социального воображения у подростков](#). АА Ахмедов, ММ Зикиряева. Новый день в медицине. 151-154, 1(29)2020
8. [ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ](#)/Манзура Зикиряева/Евразийский журнал академических исследований/2023/3/14.159-164 стр.
9. [PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF FUTURE DOCTORS](#)/Manzura Zikiryaeva/Центральноазиатский журнал образования и инноваций/2023/6/16. 148-153 с.
10. [Madaniyatlararo tafovutlarning glaballashuv sharoitida ijtimoiy-psixologik xususiyatlar](#). ММ Zikiryaeva. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 2 (3), 240-245, 2022/5/5

11. [Shaxs psixologiyasida ranglarning egallagan o'rni xususida](#). Тафаккур ва талқин, 475-485, 2020/5/15
12. [Ўсмирлар хулқ-атворида ижтимоий кадриятлар шаклланишига таъсир этувчи омилларни методологик асослари](#). Зиқиряева.М М, Psixologiya 4 (4), 124- 128, 4/2020
13. [О методологии психологического образования](#). А.А Ахмедов, М.М Зиқиряева. Вестник интегративной психологии 19 (79), 63-67, 2019/9/3
14. [Психологические особенности взаимоотношений мальчиков и девочек в младших классах](#). Зиқиряева М.М. (г. Бухара, Узбекистан) Вестник 24/2022 128-130с
15. Bobomurodova Go'zal Olim qizi. Эмпатия как фактор социальных предубеждений у студентов/ Eurasian journal of academic research/ 27.09.2023